

## **ADABIY TA'LIMDA FANLARARO ALOQA**

*Urganch davlat universiteti o'zbek adabiyoti 1-kurs magistranti*

*Ag'ajonova Soliyajon*

**Kalit so'zlar:** integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yangi nashr qilingan 6-sinf adabiyot darsligida fanlararo integratsiyaning ahamiyati haqida so'z boradi.

O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o'rni juda muhimdir.

“Integratsiya” - ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa va ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etish mumkin.

Ma'lumki, o'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham bo'lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o'z ta'lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda bizning ta'lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi.

Integratsiya – “butun” degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta'linda

fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘qitishni ko‘rsatadi.

Yangi tahrirdagi maktab darsliklarida o‘quvchilarni ham o‘quvchilarni ham fikrlashga undaydigan jihatlar ko‘p uchraydi. Buning tasdig‘i sifatida 6-sinf adabiyot darsligida har bir bo‘lim yakunida fanlararo aloqadorlik mavzuning kiritilishi bo‘lim yuzasidan xulosalar chiqarishga undaydi Adabiyot hayotning barcha sohalari bilan uzviy aloqadorlikda ekanligini aynan mana shunday mavzularni o‘rgatish orqali o‘quvchilarga yetkazish mumkin. Misol tariqasida darslikning birinchi bo‘limida adabiyot va tarix bilan bog‘liqlikni tahlil qilish masalasi o‘rtaga tashlanadi. Bo‘limda “O‘g‘ri” hikoyasi, “Shum bola” qissasi, “Yaxshilik” hikoyasi, “Dunyoning ishlari” asarining berilishi tarix va adabiyot munosabatlarini yorqin namunasi sifatida oydinlashtiradi. Bo‘limda berilgan badiiy asarlarda xalqimiz tarixini anglash orqali qahramonlar taqdirini yaxshi va yomon tomonlarini ko‘ramiz.

2-bo‘lim “So‘z sehri” deya nomlanib, bu bo‘limda adabiyot va ona tili munosabatini she’riy asarlar uyg‘unligida ko‘ramiz. She’r o‘ziga xos ritmik bo‘laklardan tashkil topgan janr bo‘lib, unda tilning adabiyotdan jarlashmas vosita, ikki fan bir birini taqoza qilishini anglaymiz. Avaz O‘tarning “Til” she’ri ushbu bo‘limda berilishi, xalq taqdirida til va adabiyotning ahamiyati muhimligini tasdig‘ini topadi. Adabiyot o‘quvchi ko‘z o‘ngida ashyolarni tilga kiritgan, tabiatni tinglashga undaydigan yaxshilik xabarchisi bo‘lib xizmat qilishi dasrlikning 3-bo‘limida. Bu bo‘limda adabiyotning texnologiya bilan uzviy aloqadorligi masalalariga to‘xtalib o‘tish mumkin. Ko‘p bahs-munozaralarda adabiyotni faqat ona tili bilan aloqador degan qarashlar o‘quvchilar tomonidan e’tirof etilgan. Darsliklar orqali o‘quvchining fikrashi va dunyoqarashi yuklashiga xizmat qilish yo‘lida kata qadam qo‘yilmoqda. Darslikning keying bo‘limida adabiyotning musiqa bilan aloqadorligi diqqatimizni tortmasdan qolmaydi. Har qanday musiqiy asar avallo so‘z orqali qayta jonlanadi. So‘z va musiqa uyg‘unligi kishi ruhiyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu bo‘limda she’riy asarlar o‘qib o‘rganiladi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, adabiyot darslarini uyg‘unlikda olib borish, o‘quvchilarning badiiy-estetik

dunyoqarashini yanada boyitadi. Yangi mavzuni tushuntirishda adabiyot darsligida fanning boshqa sohalarini aloqadorlikda ko‘rsatib she’r, maqol, hikmatli so‘zlar va badiiy asarlardan misollar keltirib, darsni integrativ tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, oliv ta’limda tahlil yuzasidan bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lib, ma’lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

**Foydalanganilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiyo‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
2. Adabiyot 6-sinf darslik. Z.Mirzayeva, K.Jabborova – Toshkent 2002, Respublika ta’lim nazariyasi
3. Musayev, U. (2002). Integratsiya darajalari. Xalq ta’limi - №6